



Xoliqov Mirjalol Raxmatulla o'g'li

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, doctoranti (PhD)

Da-vinchi9391@mail.ru

+99890-009-93-79

Annotatsiya: *ushbu maqolada teatrlarning dunyo siyosatida tutayotgan o'rni haqida. Turkiy xalqlar yetuk shaxslarining teatr va siyosatda tutgan o'rni haqida ma'lumotlar. Hamda teatrlar orqali mamlakatlararo xalqaro munosabatlarni yaxshilash, va yo'lga qo'yish omillari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Xalqaro teatr festivallarining ijobiy tomonlari haqida ma'lumotlar havola etilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy, siyosat, teatr, estetika, Avesto, turkiy xalqlar, Behbudiy, Avloniy, Hamza, Fitrat, Munavvar qori, Kamol Otaturk, Omonullaxon, Yevropa, g'oya.*

Annotation: *this article is about the role of theaters in world politics. Information about the role of mature individuals of Turkic peoples in theater and politics. As well as information on the factors of improving, and establishing international relations between countries through theaters. References are made to the positive aspects of international theatre festivals.*

Keywords: *fiction, politics, theatre, aesthetics, Avesto, Turkic peoples, Behbudiy, Avloniy, Hamza, Fitrat, Munavvar qori, Kamol Ataturk, Omonullahan, Europe, idea.*

So'nggi yillarda nafaqat O'zbekiston Respublikasida balki butun Turkiy xalqlar milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, Turk xalqlarini jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Shu borada milliy teatrlarimiz sohasida amalga oshirilayotgan bugungi islohotlar ham mamlakatlarimiz siyosiy hayotida o'zining o'rniga ega.

Milliy teatr estetikasi shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va tarixiy omillari

Tarixdan ma'lumki, milliy badiiy-estetik dunyoqarashni shakllantirishda san'atning, xususan, teatrning roli beqiyos bo'lgan. Ayniqsa, millatning mentalitetini «ko'rgazmali» badiiy ifodalashda teatrning imkoniyatlari nihoyatda katta. Umuman, Turkiy xalqlar estetikasi, xususan, teatr tarixini o'rganish uchun, avvalo, uni quyidagi shartli tarixiy davrlarga bo'lib olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: 1. «Avesto» estetikasi va zardushtiylikning teatrlashgan marosimlari. 2. Islom estetikasi va islom dinining ommaviy badiiy-emotsional urfodatlari. 3. Chorizm istilosi va sovet imperializmi davrida jadidlar estetikasi va milliy teatrning vujudga kelishi.

Milliy teatr san'ati estetikasining rivojlanishini bu tarzda davrlashtirish, albatta, munozarali bo'lishi mumkin. Chunki, bu tartibda milliy estetika hamda teatr tarixi hali maxsus o'rganilmagan, qolaversa, Turk xalqlari milliy teatr estetikasining dunyo madaniyati taraqqiyotidagi o'rni va unga qo'shgan hissasi alohida, mavzusidir. XIX asrning

oxiri XX asrning boshlari siyosiy-estetika tarixida g'oyat murakkab va xilma-xil qarashlarga boy davr bo'lib, fan-texnika taraqqiyotida, insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayolida misli ko'rinmagan tarixiy voqealar yuz berdi. Bular insonlarning borliqqa siyosiy-estetik munosabatini o'zgartirib, dunyoni yangi o'rganish va ifodalash zaruriyatini taqozo etdi. Insoniyat tarix maydoniga ma'rifatparvarlik, milliy ozodlik harakatlari g'oyalari kirib keldi. O'sha davrda ularning saflarida dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan, Yevropa madaniyatidan xabardor bo'lgan Behbudiy, Avloniy, Filrat, Hamza, Munavvar qori, Kamol Otaturk, Omonullaxon kabi Turkiy xalqlar ma'rifatparvarlari bor edi. Turk xalqlari hayotidagi ma'naviy-madaniy o'zgarishlar jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlari bilan hamnafas bo'lgan.¹⁶

Milliy teatrni shakllantirish, tomoshabin ma'naviyatini boyitish, uni estetik jihatdan tarbiyalash ijtimoiy-siyosiy, tarixiy zaruriyatning namoyon bo'lishidir. Shu bilan birga har bir tarixiy davrning estetik tamoyillari bo'lishi tabiiy. Turkiy xalqlar milliy teatri shakllanishining estetik tamoyillari quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) xalq va professional san'at tarixiy an'alarining o'zlashtirilishi hamda milliy dramaturgiyani shakllantirish; 2) spektakllarda hayotiylik, xalqchilik va milliylik hamda tasviriylik, sahna tilining shakllanishi; 3) mumtoz asarlarning sahnaviy talqiniga va milliy rejissura maktabiga asos solinishi hamda rejissura va aktyorlar ijrosida milliy ifoda vositalarini qo'llash. Bu tamoyillar shakllanish qonuniyatlarini va jarayonini o'rganish uchun milliy teatr haqidagi 1914-yildan to 1924-yilgacha chop etilgan maqolalar, axborotlar tavsifi hamda sahnalashtirgan spektakllar talqiniga murojaat qilish taqozo etiladi.¹⁷

Ma'lumki, har qanday yangilik muayyan to'siqlarga uchraydi. Ehtiyotkorlik hissini yengib o'ta olgan g'oya va fikr qaror topadi. Chorizm amaldorlari ham, eski uslub tarafdorlari ham nafaqat O'zbekistonda butun O'ra Osiyoda yangi maktablar ochilishiga qarshilik qildilar, ochilganlarini yopishga kirishdilar. Lekin ma'rifat g'oyasi, maktablarni isloh qilish, mahalliy gazeta va jurnallar tashkil qilish, o'z yerida ozod hamda erkin yashash g'oyalari O'zbekistonda jadidlar nomi bilan bog'liq holda tarix sahifasiga kirib kelmoqda edi. Ularning millat madaniyatiga, maorif, matbuot, ayniqsa, teatr san'ati shakllanishiga, milliy matkura, falsafiy-estetik ongning rivojiga qo'shgan hissalar tarixiy jihatdan xalqona, ilmiy jihatdan teran o'rganilib kelinmoqda. Sotsialistik matkura hukmronligi davrida (1917-1991) Turkiston o'lkasidagi o'zgarish va rivojlanish, sun'iy ravishda, sotsializm yutug'i deb talqin qilingan. Albatta, 1917-yildan keyin yangi maktab, institutlari ochildi, madaniyat, ma'naviyat, maorif, o'qish-o'qitish ishlari yo'lga qo'yildi.

Jadid teatrlari haqida

XIX-XX asrlarda O'zbekiston hududida paydo bo'lgan, bu teatrlarning O'zbek milliy teatrlarining ko'p jihatdan yuksalishida katta ahamiyatga ega. 1911-yil Turkiston hududida ilk drama asarlar sahnalashtirilgan. Misol qilib olganda Behbudiyning „Padarkush“ spektakli, „Mahramlar“ nomi bilan mashhur bo'lgan A.Samadovning spektakllarini e'tiborga loyiq asarlar sifatida olish mumkin. Bular ichida padarkush spektaklini yaqqol

¹⁶ Mannon Uyg'ur. Akademik teatr haqida. O'zbek sovet adabiyoti. 1934.

¹⁷ Chizgilar. Chizgilar. Mehnat va turmush 1977, N 6. 19-b



ajratib olsa bo'ladi, chunki o'sha davrda uning g'oyaviy ahamiyati juda katta bo'lgan. Samarqand shahrida birinchilardan bo'lib yangi O'zbek jadid teatri ish boshladi, uni ochilishida va qurilishida Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari juda katta bo'lgan.¹⁸

Toshkent shahrida birinchi jadid teatri 1914-yilda o'z ishini boshlagan. Bu teatrning ochilishida Abdulla Avloniyning xizmatlari juda katta. U bu teatrni „Turon teatri“ deb nomlagan. Bu teatrdam ham birinchi spektakl „Padakush“ hisoblanadi. Shu jumladan Turon teatri Turkiston bo'ylab o'zlarining gastrol safarlarini o'tkazgan. Uning 1915-yildagi gastrol safari juda ham muvaffaqiyatli chiqadi. Milliy teatr tashkilotchilaridan biri bo'lgan Mannon Uyg'ur va O'zbek jadid teatrining ilk ayol aktrisasi Masuma Qoriyeva o'z ish faoliyatini boshladilar. Turkistonning boshqa hududlarida Farg'onada Andijonda va Xivada yana shunga o'xshash teatrlar ochildi. Mannon Uyg'ur tashabbusi bilan Buxoro shahrida yana bir teatr ochildi. Bu teatrlarda xalqning ko'ngliga yaqin ahloqiy va ijtimoiy jihatlarga aloqador mavzularda sahna ko'rinishlar ko'rsatildi. Bu sahna ko'rinishlarda zulmga qarshi kurash, odamiylik kabi insoniy hislatlar ko'rsatildi. Shu tariqa jadidlar tomonidan birinchilardan bo'lib tashkil etilgan jadid teatrlari O'zbek milliy teatrini vujudga kelishiga asos bo'ldi¹⁹

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarixdan teatr va siyosiy hayot yonma-yon hamroh bo'lib kelgan. Ya'ni siyosiy hayotda albatta teatrning o'rnini beqiyosdir. Har qanday holatda xalqni, ommani qandaydir oqimga qarshi qo'yishda yoki bo'lmasa shu oqimni shiddatini oshirishda, albatta san'at turlarining ichida o'zining orginalligi bilan ajarlib turadigan teatr san'atini takidlamasdan iloji yo'q. Teatr san'ati orqali tomoshabinlarga yetkaziladigan mafkuralar, siyosiy hayotda juda muhim o'rin egallaydi. Chunki, har kuni tomoshabinlarga havola etiladigan har qanday mavzudagi spektakllar, albatta sekin-astalik bilan tomoshabinni qalbini egallaydi. Va bu orqali davlat va ommani birdamligini taminlashda xizmat qiladi. Bugungi kunda nafaqat ma'lum bir davlatda boshqaruv rahbariyati. Va xaql o'rtasidagi munosabatlar bilkim, mamlakatlararo ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma'rifiy xalqaro a'loqalarni o'rnatish va mustahkamlashda ham teatrlarning o'z o'rnini borligini ham his etib turibmiz. Bugungi kunda dunyoda tashkil etilayotgan xalqaro teatr festivallarining jahon siyosatidagi darajasi yuqorilab bormoqda. Negaki, millatlararo totuvlikni va hamjihatlilikni taminlashda ushbu teatr festivallarining o'rnini beqiyosdir. Shu festivallarda qatnashayotgan teatr truppalari birgalikda bir komanda bo'lib o'z mamlakatini urf-odatlarini, mintalitetini, qadryatlarini dunyoga tanitayotganini takidlash joiz. Shu bilan birgalikda boshqa davlatlar an'analariga guvoh bo'lgan holda, o'xshash tomonlarini diqqat bilan ko'zdan kechirishmoqda. Bu esa o'z-o'zidan har qanday insoniyat vakillarining ijobiy fikirlashiga davat etishdagi bir usuli sifatida qaralmog'i kerak. Umuman olganda ushbu xalqaro teatr festivallari bir so'z bilan aytganda dunyo siyosatini mutanosibligiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

¹⁸ Rahmonov.M. O'zbek teatri. T. 1968, 249-250-b

¹⁹ Ismoilov .E. Mannon Uyg'ur. 12-b.

1. Rahmonov. M. O'zbek teatri. T. 1968, 249-250-b
2. Vhbudiy M Tanlangan asarlar. T., «Ma'naviyaT, 1997. 7-b. J
3. Qodirov. M. O'zbek teatr an'analari. G'.G'ulom nomidagi nashiryot 1976
4. История зарубежного театра в 3-х тт./Под. Ред. Г.Бояджитева -/Т.1-3
М.Просвещение 1971-1978
5. Головян В.В. Античный театр. М. 1972